




## BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI

Научный вестник Бухарского государственного университета  
Scientific reports of Bukhara State University



1/2023

1/2023



@bxdud\_uz

@bxdud1

@bxdud1

www.bxdud.uz

<b>Ismatullayeva I.I.</b>	Hozirgi zamon tilshunosligida konseptni o'rganish metodlari, usullari va klassifikatsiyasi	135
<b>Mehmonova Y. Ch.</b>	Typology of collocations in combinatorial linguistics	139
<b>Nuniyazova Sh. U., Djumabaeva J.Sh.</b>	Comparative analysis in translation of English idioms and set expressions into Uzbek and Russian	144
<b>Rajabov E.E.</b>	O'zbek va ingliz tillaridagi "oila" tushunchasi konseptual maydonining lingvokognitiv tahlili	148
<b>Ruziyeva N. X.</b>	Zamonaviy tilshunoslikda matn va diskurs talqini	153
<b>Xodjayeva D.I., Safarova M.H.</b>	Ingliz tilini o'qitishda fonetik interferensiyaning o'rni	157
<b>Samandarov G.Y.</b>	Sodda gap ko'rinishidagi "hasharot" lug'aviy ma'no guruhlari asosida shakllangan paremalarning o'ziga xos xususiyatlari	161
<b>Sayfullayev B.N.</b>	Noqardonosh tillarda o'zlashtirmalik (o'zbek va fransuz tillari misolida)	165
<b>To'yboyeva Sh.R.</b>	Fransuz tilida sodda gap tarkibiy qismlarini tarjima qilishda yuzaga keladigan muammolar yechimi	170
<b>Абдурахманова М.У.</b>	"Кўрлик" касаллигининг ўзбек, рус, инглиз тилларидағи лингвистик-семантик тадқики	174
<b>Ахмедова М.Х.</b>	Ўкув жараёнига таалукли ноадабий сўзларнинг психолингвистик хусусиятлари	180
<b>Вахидова Ф.С.</b>	Дискурсда диний туризм ва зиёрат туризми терминларининг вокалиниши	183
<b>Avezov S.S.</b>	A Corpus-based approach to phraseology research	189
<b>Kobilova A.B.</b>	Ingliz va o'zbek tibbiy perifrazalarining semantik mikromaydonidagi lingvokulturologik xosliklari	194
<b>Bobokalonov R.R., Narzulayeva D.B.</b>	Vocabulary of the Qur'an in the object of theolinguistics	203
<b>Nazarova G.P.</b>	Muloqotda gender farq muammolari xususida	210
<b>Raxmatov A.P.</b>	Plusquamperfekt zamon shaklining grammatick ma'nolari va uning kontekstual tahlili (nemis tili misolida )	215
<b>Sayidova G.Y.</b>	Alisher Navoiy nazmiy asarlaridagi o'xshatishlarning leksik-grammatik tabiatи	221
<b>Rasulov Z.I., Yuldasheva F.E.</b>	Xushmuomalalikning nutq odobida ifodalanishi	232
<b>Бозоров З.А.</b>	Речевая культура в качестве неотъемлемой части языковой культуры личности	240
<b>Мавлонова М.Д.</b>	Инглизна ахборот технологиялари терминларининг ўзбек тилига ўзлашиш жараёнида маъно торайиши ва кенгайиши ходисалари	245
<b>Шарипова А.А.</b>	Лугат корпусини яратиш технологияси	251
<b>Hayotova D.Z.</b>	Tushuncha va so'z munosabati	255
<b>Mamatova D.M.</b>	Xitoy tilida ta'm bildiruvchi sifatlar tahlili	259
<b>Сафаров Ф.С.</b>	Маънодошлиқ каторидаги сўзлар орасидаги маъновий муносабат ҳакида	266
<b>Akhmedova D.B.</b>	Semantic comments in an explanatory dictionary and their processing as a semantic extension	272

**ADABIYOTSHUNOSLIK \*\*\* LITERARY CRITICISM \*\*\* ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ**

<b>Темирова Дж. Х.</b>	Отражение национальной картины мира в русском и узбекском детском фольклоре	277
<b>Насруллаев Э.Ж.</b>	Алишер Навоий "Хикмат ва ибрат достони"нинг гоявий таҳлили	284
<b>Шарипова Л.Ф.</b>	Шекспир ва Рауф Парфи сонетларида бадиий тасвир	288

**FRANSUZ TILIDA SODDA GAP TARKIBIY QISMLARINI TARJIMA QILISHDA YUZAGA  
KELADIGAN MUAMMOLAR YECHIMI**

*To'yboyeva Shahoza Ramazonovna,  
Buxoro davlat universiteti  
Tarjimashunoslik va lingvodidaktika  
kafedrasи o'qituvchisi  
[sh.r.toyboyeva@buxdu.uz](mailto:sh.r.toyboyeva@buxdu.uz)*

**Annotatsiya.** Mustaqillikka erishganimizdan so'ng tilshunoslар mafkuraviy asoratlardan qutulgan bo'lsa-da dunyo miqyosida o'z mavqeyini, o'rmini topishi uchun ancha mehnat va samara talab etadi. Tilshunoslарimizning bugungi yutuqlariga nazar tashlar ekanmiz, ularning ilgarigi tuzum yo'nalishidan tubdan farqlanib borayotganiga guvoh bo'lamiz. Ayniqsa, dunyo miqyosida o'zbek tilshunoslар tilshunoslikning barcha yo'nalishlarida, tarjima sohasida ijobji natijalarga erishishdi. Tilshunoslik fani taraqqiyotining hozirgi davri bosqichida til tizimi birliklarining qay tarzda nutqqa ko'chirilishi va jumlaning nutqiy zanjirda voqelanishi, sintaktik strukturalarning nutqiy faollahsuvi, ularning semantik va sintaktik munosabatlari masalasi va tarjimada ifodalanishiga doir muammolar tilshunos olimlarimizdan o'z tadqiqini kutmoqda. Chunki hozirgacha chog'ishtirma tillarda tilning sistema ekanligi to'g'risida diqqatga sazovor tadqiqot ishlari qilingan bo'lsa ham, sistema belgilaringin nutqqa ko'chirilishi, boshqacha aytganda, ularning nutqda real ishlatalishi masalasiga kam e'tibor berildi. Shunday qilib, ikki noqardosh tilning nutqiy voqelanishda sodda gapning tarkibiy qismlarining nutqda yashashi uchun zaruriy bo'lgan, lekin mohiyatan nosintaktik bo'lgan kategoriyalarning zarralari bilan bosqichma-bosqich boyitilib, nutqimizda o'nlab sintaktik, morfologik, leksik, stilistik kategoriyalarning birliklari, zarralari bilan murakkablashtirilgan, bezatilgan shaklda yuzaga chiqadi va ularni tarjima jarayonida tushunib yetish bir qancha ma'lumotlarga ega bo'lishni talab etadi. Xuddi shu yo'nalishda, rivojlanishlar qatorida tilshunoslik sohasida ham bir qator o'zgarishlar ko'zga tashlana boshladi. Xususan, O'zbek tili bilan xorijiy tillarni qiyoslab o'rganish maktablari yaratildi. Hozirda esa qiyosiy-tipologik, sintaktik aspektida yechimi kutilayotgan ishlari ko'lami juda ko'p. Shulardan biri sifatida nutqiy hosilalarning alohida turi – fransuz va o'zbek tillaridagi sodda gap tarkibiy qismlarining tadqiqi muammoqidir. Ushbu maqolada, fransuz tilidagi sodda gap tarkibiy qismlarining ifodalanishi va uning o'rganuvchilarida tarjimada duch keladigan sintaktik, kontekstual va situation muammolari yechimi haqida so'z yuriladi.

**Kalit so'zlar:** sintaktik, kontekstual, situation, muammo, yechim, fikr, hukm, gap, fonologiya, fonetika, leksika, semantika, morfologiya, predikativlik, binar, so'z-gap, nominal, averbal, ibora, poropozitsiya.

**Аннотация.** После обретения нашей государственной независимости лингвисты избавились от идеологических сложностей, но требуется много труда и усилий, чтобы найти своё место в мировом масштабе. Глядя на сегодняшние достижения наших языковедов, мы видим, что они коренным образом отличаются от направления прежнего режима. В частности, узбекские лингвисты добились положительных результатов во всех областях языкоznания и в области переводоведения. На современном этапе развития науки о языкоznании остро стоят проблемы передачи единиц языковой системы в речь и реализации предложения в речевой цепи, речевой активизации синтаксических структур, вопрос их семантических и синтаксических отношений и проблемы их выражения в переводе ждут наших лингвистов, потому что до сих пор проводились замечательные исследования системы языка в смешанных языках, но мало внимания уделялось переносу системных знаков в речь, иначе говоря, их реальному употреблению в речи. Таким образом, компоненты простого предложения в речи двух неродственных языков постепенно обогащаются частицами категорий, необходимых для жизни в речи, но по существу несинтаксических, а в нашей речи существуют десятки синтаксических, морфологических, лексических, стилистических категорий, выступает в сложной, оформленной форме со своими частицами, и понимание их в процессе перевода требует наличия некоторой информации. В том же направлении, наряду с разработками, стал отмечаться ряд изменений в области языкоznания. В частности, были созданы школы сравнительного изучения узбекского и иностранных языков. В настоящее время предстоит большая работа в сравнительно-типологическом и синтаксическом аспектах. Одной из них является проблема исследования компонентов простых предложений французского и узбекского языков, особого типа речевых

## LINGUISTICS

производных. В данной статье речь идет о представлении компонентов простого предложения во французском языке и решении синтаксических, контекстуальных и ситуативных проблем, с которыми сталкиваются изучающие его при переводе.

**Ключевые слова:** синтаксический, контекстуальный, ситуация, проблема, решение, мысль, предложение, фонология, фонетика, лексика, семантика, морфология, предикативность, бинарность, слово-предложение, именное, авербальное, словосочетание, паропозиция.

**Abstract.** After our independence, linguists got rid of ideological complexities, but it takes a lot of work and effort to find their place on a global scale. Looking at today's achievements of our linguists, we see that they are fundamentally different from the direction of the previous regime. In particular, Uzbek linguists have achieved positive results in all areas of linguistics and in the field of translation studies. At the present stage of development of the science of linguistics, the problems of transferring units of the language system into speech and the implementation of the sentence in the speech chain, the speech activation of syntactic structures, the question of their semantic and syntactic relations, and the problems of their expression in translation are waiting for our linguists. Because until now, remarkable studies have been carried out on the system of language in mixed languages, but little attention has been paid to the transfer of system signs into speech, in other words, their actual use in speech. Thus, the components of a simple sentence in the speech of two unrelated languages are gradually enriched with particles of categories necessary for life in speech, but essentially non-syntactic, and in our speech there are dozens of syntactic, morphological, lexical, stylistic categories that appear in a complex, formalized form with their own particles, and understanding them in the process of translation requires some information. In the same direction, along with developments, a number of changes in the field of linguistics began to be noted. In particular, schools for the comparative study of Uzbek and foreign languages were established. At present, a lot of work remains to be done in the comparative typological and syntactic aspects. One of them is the problem of studying the components of simple sentences in French and Uzbek, a special type of speech derivatives. This article deals with the representation of the components of a simple sentence in French and the solution of syntactic, contextual and situational problems that its students face when translating.

**Keywords:** syntactic, contextual, situation, problem, solution, thought, sentence, sentence, phonology, phonetics, vocabulary, semantics, morphology, predicativity, binarity, word-sentence, nominal, averbial, phrase, poroposition.

**Kirish.** Nutq faoliyat uchun eng asosiy birlik gapdir. Chunki ijtimoiy hayotda so'zlovchini fikr ifodalashi, informatsiya uzatishi, tinglovchingin axborot qabul qilishi, ya'ni kishilarning o'zaro fikr almashuvi so'z yoki so'z birikmasi orqali emas, balki gap orqali amalga oshadi. Nutqiy qobiliyatning asosiy maqsadi esa gap tuza olish va uni bayon etshdan iboratdir. Inson tilida nimaiki bo'lsa, barchasini turli shakl va mazmunda gap orqali ifodalaydi. Zero, gap ma'lum fikrni, hukmini namoyon etsa, uning manbayi real borliq yoki his-tuyg'ulardan tashkil topgan bo'ladi. Masalan, *Les arbres fleurissent*. Ushbu gap bizning ongimizda ikki tasavvur – predmet (les arbres haqidagi tasavvur) va uning holati (fleurin haqidagi tasavvur) ni jonlantiradi va o'zaro yaqin ikki tasavvurning qo'shilishidan fikr yuzaga keladi. Fikr esa gap orqali ifodalanadi. Tildan maqsad gap qura olish, gapdan maqsad esa fikr ifodalashdir. Shu o'rinda til bilan tafakkurning chambarchas bog'liqligini eslashning o'zi yetarli. Gap har bi til sistemasida kommunikativ mohiyatga molik bo'lgan eng asosiy birlik bo'lib, o'ziga xos tuzilishga ega. Til o'zining kommunikativ funksiyasi (jamiyatda aloqa vositasi vazifasi) ni faqat gap orqaligina bajaradi. Tilning asosiy vazifalaridan yana biri psixik (ruhiy) funksiyasi bo'lib, fikrni shakllantirishga xizmat qiladi va bu vazifa ham gap orqali yuzaga chiqadi. Demak, gapda ham ijtimoiy, ham ruhiy maqsad bo'ladi. Shuning uchun tilning barcha sathlari – fonologiya, fonetika, leksika, semantika, morfologiya, sintaksis, stilistika – bitta maqsadga gapni shakllantirishga va aloqani amalga oshirishga xizmat qiladi. Shu o'rinda gap turlaridan biri bo'l mish sodda gapning fransuz tilida qanday shaklda namoyon bo'lishi va aynan shu tilni o'rganuvchilarida duch kelinadigan muammolarga o'z e'tiborimizni qaratsak.

**Asosiy qism.** Bizga ma'lumki, «til ~ nutq» aspektida gap nutq birligi, uning qolipi til birligi sifatida tan olinadi. Shunday qilib, gap qolipi nima o'zi? Biz tillardagi sintaktik qoliplarning bevosita kuzatish asosida berilmaganligini, umumiyligini, mohiyat, zarat, sabab, imkoniyat ekanligini bilamiz. Lisoniy sintaktik qoliplar o'z ichida moddiylikka ishorani mujassamlashtirgan bo'ladi. Gapning lisoniy sintaktik qolipi ham gapning asosiy Grammatik va struktur xususiyatlarni o'z ichiga olgan mavhum chizmadir. Yevropa tilshunosligida gapning lisoniy sintaktik qolipi ikki a'zoli [Ega-Kesim] qurilma sifatida ajratiladi. Aslida bu qolip tilshunoslikka mantiqdan ko'chirilgan bo'lib, hukm hamisha ikki a'zoli, ya'ni «subyekt-predikat»dan iboratdir. Aynan shu qolip [S-P] to'ppa-to'g'ri gap tizimiga ko'chirildi, gapning egasi «subyekt», kesimi esa

## LINGUISTICS

«predikat», ya'ni gap «subyekt bilan predikat orasidagi aloqa» deb nomlanadi. Odatda gapning eng keng tarqalgan qolipi fe'lning xususiyatiga qarab, ega+kesim, ega+kesim+aniqlovchi yoki to'ldiruvchi sifatida quriladi Ana shu qurilma propozitsiyani hosil qiladi. Ammo propozitsiya o'z tarkibiga qisqartirilgan shakllarni (bir yoki bir necha element, fe'lli yoki fe'l'siz) oladi, ammo shunga qaramay, u o'z mavqeyini saqlab qoladi. Propozitsiyaning elementlari bitta fe'l atrofida kichraytirilgan yopiq holatda ifodalansa, sodda gap deb ataladi. Sodda gaplar o'z tarkibida birgina predikativ birlikka ega bo'lgan, ma'lum fikrni ifodalay oladigan, grammatik va intonatsion jihatdan shakllangan sintaktik birlik bo'lib hisoblanadi. Ravshanki, gap hukmni ifoda etuvchi lisoniy vositadir. Hukm esa gapning kesimisiz ifodalana olmaydi, yakunlanmaydi.

Gapning hukmdan farqli o'laroq grammatic kategoriya sifatidagi talqini hamda gap va hukm orasidagi aloqadorlik masalasi o'zbek sistem-struktur tilshunosligida H.Ne'matov, A.Nurmonov, N.Mahmudov, R.Sayfullayeva, M.Qurbanova, M.Abuvalovalarning tadqiqotlarida yetarlicha yorilgan. An'anaviy talqining ko'ra: "grammatik jihatdan kesim o'z sostavidagi bo'laklarga nisbatan hokim, egaga nisbatan esa tobedir. Ega biringchi bosh bo'lak, mutloq hokim bo'lak bo'lsa ham, gapni tashkil etishda, gaplikni ko'rsatishda kesim muhim rol o'yaydi. Ega faqat temani ataydi, shu tema haqidagi bayon, fikr, mulohaza kesim orqali ifoda qilinadi". O zida predikativlikni aks ettiradigan, gapni uyuştiruvchi va shakllantiruvchi markaziy bo'lak kesimdir. U kesimlik belgisini ifodalovchi (harakat, holat, xususiyat) ega haqidagi xabarni bildirgan bo'lakdir. Juda ko'p holatlarda kesim fe'ldir va bu fe'l egada ifodalangan subyektning holat yoki harakatini belgilab beradi. Shu bilan birga, kesim gap qurilishida uyuştiruvchilik vazifasini bajaradi. Qolgan bo'laklar kesimning kengaytiruvchilari yoki o'sha kengaytiruvchilarning kengaytiruvchilari hisoblanadi. Bu jihatdan ega ham kesimning subyekt valentligini to'ldiruvchi bo'lak – gap tizimini kengaytiruvchi hisoblanadi. "Kesim gapning predikativ markazidir", "kesim o'zicha fikr ifodalash qobiliyati bilan ham ajralib turadi" degan qarashlar ham lingvistik adapiyotlarda o'z aksini topgan. Fransuz tilida soda gaplar verbal, nominal yoki so'z-gapdan iboratdir. **Verbal gap**-sodda gap qurilishi kabi, ya'ni fe'l markazda, ammo qurilishi o'zgaruvchan. Masalan, Les buches fument. (H.Queffelec) La nuit etait chaude. (M.Deon)

**Nominal gaplar** –fe'lning elliptik shakli bo'lib, u o'zida ot yoki olmoshti, yoki otli birikmani aks ettirgan bo'ladi. - Tu veux un bout? - Non. De quoi? - De biscuit. Je t'en ai garde la moitié. Les trois quarts. Pour toi. (S.Becket)

**So'z-gaplar** - bir so'z orqali fikrni to'liq ifodalanganligini anglatadi. Bunda fikrning eng qisqa ibora orqali berilganligi yoki to'liq tushuncha beradigan turli qichqiriqlarni tushunishimiz mumkin. Ammo so'z-gaplarni fe'lning elliptik shakli bilan aralashitirmslik kerak. -Je n'ai pas dit de choses extraordinaires. -Oh! Si! (M.Achard)

Umumiy tushunchadan farqli o'laroq, fransuz tilini o'rganuvchilari tushunishda qiyinchiliklarga faqat uzun gaplar sabab bo'lmaydi. Sodda va nominal gaplarda tushunish muammolari sintaksisdan ko'ra ko'proq kontekstual yoki situatsion sohaga to'g'ri keladi, chunki nominal gapda ko'pincha cheklangan sonli lingvistik elementlar haqida gap boradi. . Darhaqiqat, frantsuzcha kanonik jumlada "ega" va tuslanilgan "fe'l" muhim elementlarning yo'qligi bilan duch kelganda, bu tilni o'rganuvchilar o'zlarini tushunmagandek his qilishlari mumkin. Bunda unga aynan matn grammaticasi yordamga keladi, buning uchun sujet-predikat jufti tema (boslang'ich nuqta) -rema (yangi ma'lumot) yoki faqat olmosh bilan almashtiriladi. Nominal frazani ko'pincha (normativ) grammatica o'qituvchilari ko'rib chiqadilar, ular morfosintaktik muammolarni, ba'zan ma'noga zarar etkazadigan holda, normadan chetga chiqish sifatida ko'rsatadilar. Va shunga qaramay, u og'zaki jumlalar kabi (uzunroq yoki qisqaroq bo'lishi mumkin) kundalik tilning bir qismidir. Tilshunoslar tilni insonlar jamoasiga xos bo'lgan muloqot quroli deb ta'riflaganliklari sababli, shaxslararo muloqot xizmatida bo'lgan hamma narsa o'rganishga loyiqidir. Agar inson muloqotini har tomonlama va uslubiy tarzda tahliq qilish va o'rgatish niyatida bo'lsa, lingvistik yoki boshqa aloqaning barcha shakllarini hisobga olish kerak.

Grammatik jihatdan aytganda, frantsuzcha kanonik jumla, " un modèle construit *a priori*" (Lefevre, 1999) kamida bitta ega va bitta fe'lni o'z ichiga oladi. Nominal jumla "gap" deb ataladi, chunki fe'l bo'lmasa ham, so'zlar majmuasi ("Quelle injustice!"), yoki hatto bitta so'z ("Objection?") kanonik jumla vazifasini bajara oladi. Ya'ni tilshunoslik adapiyotida bunday iboralarni turli nomlar bilan : grammatica va tilshunoslikning obyekti bo'lgan "nominal fraza", "nominal gap" yoki "nominal ibora" yoki "nominal xabar" deb ham atash mumkin. Darhaqiqat, nominal iboralar bo'lsa, u qaysi kontekstda paydo bo'lishiga qarab gap yoki xabar bo'lishi mumkin: shakllar haqida gap ketganda "nominal gap" atamasini tanlaymiz ; ishlab chiqarish sharoitidan mustaqil ravishda ma'lum ma'noga ega, turg'un ma'noga ega bo'lgan gap bo'lsa; ishlab chiqarish holatiga, demak, gapga ko'ra ma'no o'zgarib tursa, "nominal xabar" atamasi to'g'ri keladi. Bu yerda gap va xabar o'rtasidagi farqlarni qisqacha eslab o'tish lozim. Gapda grammatic gapning elementlari bo'lishi mumkin yoki bo'imasligi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, gap zohiriyl premeti yoki fe'l bo'lmasa ham, har bir gap holatida turlicha ma'no kasb etadi. Fraza va gap o'rtasida mavhum tarzda amalga

## LINGUISTICS

oshirilgan farq talaffuz va pragmatik tahlil zaruratidan kelib chiqqan, chunki faqat lingvistik tahlil lingvistik aloqaning barcha shakllarini tushuntirish uchun yetarli emas. Darhaqiqat, til aloqasi asosan psixosotsiologik faktdir.

**Nominal ibora.** Ayrim fe'lli yoki fe'lsiz sodda gaplar orasida "bu sifatdosh, qo'shimcha, nominal, predlog bo'lishi mumkin.

- a. Délicieux, ces fraises. (sifatli sintagma)
- b. Toujours dans la rue, Annie. (ravishli sintagma)
- c. Très jolie chemise. (otli sintagma)
- d. Encore en panne, à ce que je vois. (predlogli birikma)
- e. Très critiquée en ce moment, la position de Marie. (felli sintagma)

Garchi misollarda faqat "c" da berilgan misol nominal sifatida taqdim etilgan bo'lsa-da, "d" dan tashqari barcha boshqalarini ham nominal deb hisoblash mumkin, chunki og'zaki jumlalardan farqli o'laroq, barchasi ot atrofida tuzilgan. Nominal jumlalar, xususan undovlarda, matbuot sarlavhalarida, kitob sarlavhalarida ishlatalidi; balki maqollarda, valyutalarda, reklama va siyosiy shiorlarda ham uchratishimiz mumkindir.

**Nominal gaplarga xos xususiyatlar.** Mavzuni to'liq tushunish uni imkonni boricha yoritish uchun nominal jumlalarning o'ziga xos xususiyatlariga aniqlik kiritish kerak:

1. Nominal gaplar ko'p hollarda qisqa bo'ladi. Bu ba'zan tilda tejamkorlik bilan muloqotni osonlashtiradi va ba'zida tushunishni qiyinlashtiradi, ayniqsa til o'rganuvchilar uchun.
2. Lakonik xarakterga ega nominal gaplar odatda elliptik yoki to'liqsiz bo'ladi. "avoir", "etre" yoki "il ya" fe'llarining tushib qolishi tez-tez uchrab turadi va u ortiqcha mavhumlikni keltirib chiqarmaydi.

Biroq "etre", "avoir" fe'llaridan boshqa fe'llarning yo'qligi so'zlovchidan ma'lum bir faol ishtiroy etishni talab qiladi, chunki fe'lning yo'qligi, albatta, shaxsning, zamonning o'chirilishi bilan birga keladi. Shunga qaramasdan, ikkita nominal jumla, hatto kontekstdan olib tashlangan bo'lsa ham, quyidagi misoldagi kabi ushbu elementlarining ba'zilarini o'z ichiga olishi mumkin: « Deux longues années d'attente. / Et puis, la bonne nouvelle ! ». Birinchi gapda ; zamon : o'tgan ; Aspecti : davomiy ; Modallik : subyektiv (sifat : « longues ») ; Gapning modalligi: darak. Ikkinchi gapda esa : zamon : o'tgan yoki hozirgi ; Aspecti : ponktual ; Modallik : subyektiv (sifatlovi : « bonne ») ; Gapning turi : Undov gap.

**Xulosa.** Yuqoridagilardan ko'rinaliki, til doimiy taraqqiyotda bo'lgani singari sodda gap tarkibidagi nutqiy hosilalar ham davri o'tishi bilan o'zgarib boradi. Shunday qilib, nutqiy voqelanishda bu sodda gap qoliplari gapning nutqda yashashi uchun zaruriy bo'lgan, lekin mohiyatan nosintaktik bo'lgan kategoriyalarning zarralari bilan bosqichma-bosqich boyitilib, nutqimizda o`nlab sintaktik, morfologik, leksik, stilistik kategoriyalarning birliklari, zarralari bilan murakkablashtirilgan, bezatilgan shaklda yuzaga chiqadi. Fransuz tili o'rganuvchilarini til o'rganishda duch keladigan muammolarni bartaraf etishda alohida lisoniy qurilishga ega bo'lgan sodda gapning atipik gap qurilishlariga e'tibor qaratishlari lozim. Bunday qurilishga ega bo'lgan nutqiy hosilalar semantik-funksional shakllangan so'z-gaplar uchun ahamiyatlari nutqiy hodisadir.

## ADABIYOTLAR :

1. Shakhnoza, T. . (2022). Expression of Averbial Sentence in Uzbek and French. Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT, 2(5), 133–138.
2. Tuyhoeva Shakhnoza. (2022). Linguistic analysis of simple sentence construction in uzbek and french. Eurasian journal of academic research, 2(3), 184–187.
3. Туйбоеева, Ш. (2022). Простая конструкция предложения в узбекской и французской системной лингвистике. Центр научных публикаций (buxdu.Uz), 8(8). извлечено от [https://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/5813](https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/5813)
4. Абдураҳмонов Ҳ., Қўшима гап синтаксиси асослари. Т.: Фан, - 1958. -325 б.
5. Абузалова М. Бобокалонов Р. Фразеологик бирликларнинг лексик маъно бутунлиги // TAT, 1999. № 3, 47-52 б.
6. Бобокалонов Р. Олий ўқув юртларида синтаксисни ўрганишининг қиёсий-типовологик масалалари // TAT, 2004, 6-сон, 74-78 бетлар.
7. F.Leufeuvre . Exemple de la phrases averbale existentiel..autoreferat.2007.